
QIZLARNING ENG YAXSHI BIZNES G'OYASI

Farg'ona huquqshunoslik kollejida "Kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining eng yaxshi biznes g'oyasi" tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

"Tadbirkor ayol" uyushmasining viloyat bo'limiga 138 nafar bitiruvchilar tomonidan hujjatlar topshirilgan bo'lib, 19 yo'nalishda 57 nafarining biznes-g'oyalari saralab olindi. Ularga "Mikrokreditbank" filiallaridan 4 million so'mdan imtiyozli kredit olish imkonini beruvchi sertifikatlar topshirildi.

Oltiariq tumanidagi "Nurli obod" fermer xo'jaligi rahbari Lolaxon Murotova ishtirokida yoshlarga sohada olib borilayotgan islohotlar, fermerlik, hunarmandchilik, tadbirkorlik yo'nalishlarida yaratilayotgan imtiyoz va sharoitlar, qarorlarning mazmun-mohiyati tushuntirildi. Qizlarning ijodiy ko'rgazmalari ularning qiziqishi, maqsadlarini ifoda etdi.

Asalarichilik sohasiga juda qiziqaman. O'z tadbirkorlik ishimni imtiyozli kredit bilan boshlayman, – deydi Buvayda qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji bitiruvchisi Dilfuza Asrorova. — Viloyatimizda o'ziga xos asalarichilik maktabi yaratilgan. Prezidentimiz viloyatimizga tashrifi chog'ida sohaga katta e'tibor berib, biz yoshlarning o'qishimiz, mutaxasis kadr bo'lib etishishimiz uchun takliflar berishdi. Bundan cheksiz quvondim. Sohani chuqurroq o'rganib, faoliyatimni kengaytirish, mahalladoshlarimni, qishlog'imni shifobaxsh ne'mat bilan ta'minlashga harakat qilaman.

2017-07-10 10:54:56